



"TA'LIM TARBIYA INSON HAYOTINING KO'ZGUSI"

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17977535>

Ilmiy rahbar: To'rayeva Ma'mura Fazliddin qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti pedagogika psixologiya fani o'qituvchisi

Berdiyeva Nilufar

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Pedagogika yo'nalishi 2-kurs 1-guruh talabasi

O'zbekiston Respublikasi Navoiy viloyati

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada ta'lim va tarbiya uyg'unligi, ta'lim va tarbiya mazmunining uyg'unligi tamoyili, ta'limning tizimliliigi va izchillik tamoyili bayon qilinayotgan o'quv materialini mustahkamlash va ilgari o'tilgan materiallarni to'ldirishga xizmat qilish, tarbiya va unga bog'liq jarayonlarga yangi hamda sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv haqida batafsil bayon etilgan.*

KALIT SO'ZLAR: *ta'lim uyg'unligi, tarbiya uyg'unligi, yaxlit ta'lim, uyg'unlik, izchillik tamoyili.*

«ОБРАЗОВАНИЕ И ВОСПИТАНИЕ — ЗЕРКАЛО ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА»

Научный руководитель: Тураева Мамура Фазлиддин кизи

Преподаватель педагогики и психологии

Навоийский университет инноваций

Бердиева Нилуфар

Студентка 2 курса, 1 группы направления «Педагогика»

Навоийский университет инноваций

Республика Узбекистан, Навоийская область

АННОТАЦИЯ: *В данной статье подробно описан подход к воспитанию и связанным с ним процессам, опирающийся на новое и здоровое педагогическое мышление, для закрепления учебного материала, в котором излагается принцип гармонии содержания образования и воспитания, принцип системности и последовательности обучения и др.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *гармония воспитания, гармония воспитания, целостное воспитание, гармония, принцип последовательности.*



"EDUCATION AND UPBRINGING — A MIRROR OF HUMAN LIFE"

Scientific Advisor: To'rayeva Ma'mura Fazliddin qizi

Lecturer of Pedagogy and Psychology

Navoi University of Innovations

Berdiyeva Nilufar

2nd year student, Group 1, Pedagogy major

Navoi University of Innovations

Republic of Uzbekistan, Navoi region

ABSTRACT: *This article describes in detail an approach to education and related processes based on new and healthy pedagogical thinking to consolidate educational material, which outlines the principle of harmony between the content of education and upbringing, the principle of consistency and consistency of learning, etc.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *гармония воспитания, гармония воспитания, целостное воспитание, гармония, принцип последовательности.*

KIRISH

Ta'lim va tarbiya mazmunining uyg'unligi tamoyili – bu kishilarga bilim va tarbiya berish jarayonidan iborat bo'lib, bunda egallangan bilim va ko'nikmalarni hayotga qo'llay olishga o'rgatiladi, hayotda ta'lim oluvchilarning ham intellektual, ham ma'naviy jihatdan uyg'unlikda rivojlanishi ta'minlanadi.

Yaxlit ta'lim - tarbiya jarayonida ikkala o'zaro bog'liq juftlik, ya'ni bilim berish va tarbiyaviy ko'nikmalarni shakllantirish hamda shakllangan ta'limiy – tarbiyaviy bilimlar va ko'nikmalar bo'yicha faoliyat ko'rsatishga o'rgatish, ob'ektiv borliqdagi qonuniyatlarni o'rganish va uning amaliy munosabatlarini tarkib toptirishda namoyon bo'ladi. Shu sababli ta'lim oluvchilarga bilim berishda egallangan bilimni amalda ishlatishga o'rgatish bilan birga ta'lim tarbiyalovchi ham bo'lishi kerak.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Inson ma'naviy olamini shakllantirish borasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev belgilab bergan vazifalar, shuningdek yetuk mutaxassis va komil insonni tarbiyalashga

qaratilgan ishlarni amalga oshirish bugungi kunda dolzarb va ustuvor masala hisoblanadi. Shu bois bu masala universitetimiz rahbariyatining doimiy e'tibor markazida bo'lib kelmoqda.[1]

Mazkur maqsadni ro'yobga chiqarish uchun universitetda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy-tarbiyaviy ishlar qamrovi kengayib bormoqda. Prezidentimizning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida ta'kidlanganidek, yoshlar ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, ularning intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.[2]

Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga asoslanadi. Bu tamoyil ta'lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi.[3] Ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarning samarali kechishi o'quvchilarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan uzviy bog'liq.



Bundan tashqari, ta'limning tizimliliği va izchillik tamoyili o'quv materialini mustahkamlash, ilgari o'tilgan bilimlarni to'ldirish va o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv uzluksiz va tizimli ta'lim jarayonini ta'minlab, bilim va malakalarni chuqurlashtirishga imkon yaratadi.[4]

NATIJALAR

Tarbiya usullariga: So'z orqali ifodalash usuli, ko'zgazmalilik usuli, amaliy namuna usuli, rag'batlantirish va jazo usuli kiradi. Yuqoridagi metodlar bir necha guruhlariga bo'linadi. So'z orqali uzatish, maslahat berish ma'lumotlarni eshitish orqali qabul qilish. Kinofilmlar va badiiy san'at va boshqa usullar. Tarbiya ma'lumotlarini amaliy mehnat orqali ko'rsatish. O'quvchi talablarining yaxshi bajargan ishlarini o'rtoqlari yoki ota-onalari oldida rag'batlantirish.

O'qituvchining rag'batlantirish usuli ikki turga bo'linadi:

1. Siz buyurgan ishga mas'uliyat bilan yondashganligini rag'batlantirish.
2. Siz buyurgan ishga qiziqish va uddalay olganligini rag'batlantirish.

Tarbiya maqsadi umumiy va individual maqsadlar birligi va uyg'unligini namoyon etadi. Tarbiyaning umumiy ijtimoiy maqsadini hal etishga yo'naltiriladi, hamda aniq vazifalar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, tarbiya usullari- o'qituvchi, tarbiyachining tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, ularga ijobiy xulq-atvor ko'nikmasi va malakalarini singdirish maqsadida ularning hayoti va faoliyatini tarbiyaviy jihatdan to'g'ri tashkil etish yo'llaridir. Aniqrog'i tarbiya usuli deb tarbiyachining bolalarda axloq-odob fazilatlarini tarkib toptirish maqsadida ularning ongi va irodasiga ta'sir etish yo'llariga aytiladi. Tarbiya usullari

tarbiyaning maqsadi va mazmunidan kelib chiqib yetuk inson shaxsini tarbiyalashga qaratilgan. Ijtimoiy muhitning shaxs shakllanishidagi o'rni nihoyatda beqiyosdir. Biroq tarbiya mohiyatini yoritishda o'ziga hos ahamiyatga ega bo'lgan yana bir tushuncha ham mavjud bu tarbiya metodlari tushunchasidir. Tarbiya metodi (yunoncha "metodos"- yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li, tarbiyalanuvchining ongi, irodasi va hulqiga ta'sir etish usullari. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar-bu tarbiyalanuvchining ongi, irodasi, tuyg'ulari va hulqiga ta'sir etish usullaridir. Metodlarni yanada takomillashtirish muammosi har doim mavjud, har bir tarbiyachi o'zining imkoniyatlariga ko'ra uni yechimini topadi, ta'lim-tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni bir asos bo'yicha metodlarni ishonchli klassifikatsiyasi joriy qilinmagan. Ta'lim yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin. Pedagogikada biror tarbiya jarayonida mutahassislar metodlarni ko'p takrorlanishiga qarab ishontirish, namuna, mashq, taqdirlash, jazolash metodlarini o'rganishgan. Pedagogik amaliyotda ushbu metodlarni ko'p takrorlanishini uchramiz. Pedagoglar o'quvchilar bilan birgalikda ularga bilim berish axloqiy normalarini muhokama qilib ularni faoliyatga jalb etib ularga doimo namuna bo'lib tarbiya beradi. Shaxsning kamol topishida "faoliyat", "faollik" tushunchalarining o'rni beqiyos. Buyuk olimlar o'z sohasida yetuk inson bo'lib yuksaklikka erishish uchun tinmay mehnat qilganlar. Inson tinimsiz mehnati va iste'dodini ro'yobga chiqarish uchun o'z ustida doimo izlanishda bo'lmog'i lozimdir.[5]

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida Xalq ta'limini keng yoyilishi, miqdor va



sifati jihatidan tez o'sib borishi turli hildagi ta'lim tizimi va ta'lim muassasalaridan tashqari o'quv tarbiya maskanlarining ishlab turishi, ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarishning juda zarurligini taqozo etadi. Ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalarni muvafaqqiyatli bajarish ta'lim tizimini boshqarish va unga rahbarlik qilish faoliyatining saviyasiga bog'liq. Ta'lim tizimiga ilmiy rahbarlik asoslarini ishlab chiqish pedagogika uchun asosiy yo'nalishlardan biridir.

O'quvchilar va talabalarining aqliy rivojlanishi ko'p jihatdan mustaqil fikrlashga, tarbiyalanishiga bog'liq. Ularning tarbiyalanganlik darajasini tahlil qilish ma'naviy- ma'rifiy o'sib borish xususiyatlarini o'rganish hozirgi davr talabalaridan biridir. O'zbekistonda jinsi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeidan qat'iy nazar har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi. Ta'lim va tarbiyaning o'rtasida ochiq oydin farq bor. Ta'lim -tarbiyaning bir yuzidir. Tarbiya esa ta'limni o'z ichiga oladi. Demak tarbiya o'z o'zidan ta'limga nisbatan komil va keng qamrovlidir.

Izchillik ta'lim mazmuni, uning shakli va usullari, o'quv jarayoni ishtirokchilari bo'lgan subyektlarning o'zaro munosabatlariga taalluqli. U alohida parsial (yunoncha partialis – qisman) va xususiy o'quv vaziyatlari, predmet va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik, aloqadorlik qonuniyatlarini asta-sekin o'zlashtirish asosida ularni yagona yaxlit o'quv jarayoniga birlashtirishga imkon beradi.

Izchillik ta'lim jarayonining ma'lum tizim va ketma-ketlik asosida bo'lishini nazarda tutadi, zero, murakkab masalalarni oddiy masalalarni o'rganmay turib hal etib bo'lmaydi.

Tarbiya orqali xar qanday odamni istagan ijtimoiy qiyofaga solish mumkin degan karash hukmron bo'lganligi uchun ham uning shaxsni shakllantirishdagi o'rniga oshiqcha baho berildi. Tarbiyalanuvchi shaxsining Tarbiyaga berilish yoki berilmaslik xususiyatlarining hisobga olinmasligi tarbiyaviy tadbirlarga mahliyo bo'lishdek pedagogik xatolikka olib keldi. Buning natijasida Tarbiya maqsadsiz bo'lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yo'nalishga solinishi mumkin bo'lgan qiyofasiz to'da, olomon tarzida qarash qaror topdi, Bu hol Tarbiyaning samarasizligiga olib keldi.

MUHOKAMA

Tizimlilik va ketma-ketlik u yoki bu o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati, uning elementlari o'rtasidagi o'zaro mosligini tahlil qilishga imkon beradi. Ta'limning tizimlilik va ketma-ketligi ma'lum fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, borliqni yaxlit idrok etish o'rtasidagi qaramaqarshiliklarini hal etishga imkon beradi. Ushbu holatlar birinchi navbatda dastur va darsliklarni muayyan tizimda yaratish, fanlararo hamda fanlar ichidagi bog'liqlikni ta'minlash evaziga namoyon bo'ladi.

Tarbiya" fanidan ko'zlangan maqsad birinchidan o'quvchilarning yoshi va psixologiyasiga mos ma'naviy rivojlanishni ta'minlash, ikkinchidan mazkur fanni o'qitishda fanlararo bog'liqlik va turli millatlar qadriyatlarini inobatga olish, uchinchidan, o'quvchilarda vatanparvarlik, mardlik, insonparvarlik, iroda, o'z kelajagi uchun chuqur bilim olish va intilishga undovchi hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir. Eng muhimi ushbu fan tobora avj olayotgan globallashuv davrida farzandlarimizda salbiy illatlarga qarshi immunitetni shakllantirishda fan-



ta'lim-tarbiyaning uyg'unligini ta'minlashga olib keladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ta'lim va unga bog'liq jarayonlarga yangi va puxta pedagogik tafakkurga asoslangan yondashuv shakllana boshladi. Uning talqinida ilmiy asoslanmagan sinfiy partiyaviy yondashuvdan voz kechildi. Ta'limning milliylikiga alohida e'tibor beriladi. Shu maqsadda xalq pedagogikasi boyliklari, o'zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari

puxta o'rganiladi. Natijada o'zbek ped. Oila va ijtimoiy tarbiya fan va amaliyotda alohida o'rin tutadi. Ta'limda irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadi. Shu bilan birga, shaxsni shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning o'rnini ortiqcha baholash ham yo'qoldi. Bu esa ta'lim-tarbiya bilan bog'liq voqea va vaziyatlarni to'g'ri izohlash, tarbiyaviy faoliyat tizimini to'g'ri aniqlash imkonini berdi

.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev, Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-5979. "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" (2020-yil 26-mart). – Xalq so'zi gazetasi, 2020-yil 27-mart.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637). – Xalq so'zi gazetasi, 2020-yil 24-sentabr.
5. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli tajribaviy lug'at). O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. T.: «Yangi asr avlodi», 2002.